

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MA’NAVIY – AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAKNING AHAMIYATI

Raximova Nigora Abduzaxidovna

Tel: 97 712 78 66

*Xalqaro islom akademiyasi qoshida tashkil etilgan " Ziyo- Zukko umumta'lim
maktabi" boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Anatatsiya: *Maqolada bolalarda ma’naviy – axloqiy tarbiyani shakllantirishda ertaklarning o’rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, muallif ertaklar yordamida bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri rivojlanishi, tasavvurining uyg’onishiga, og’zaki va yozma nutqi rivojlanishida, vatanga, oilaga, kasb- hunarga yo’naltirishda, iqtisodiy bilimlarni o’rganishga oid qiziqarli ertak hikoyasi va stenariy ishlanmasi hamda o’z tavsiyalarini berib o’tgan.*

Kalit so’zlar: *Ertak, ma’naviy- axloqiy, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur, kablar: etikdo’z, tikuvchi, temirchi, insonlarga yaxshilik qilish, mehr- oqibat, o’zaro hurmat, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, ertak stenariysi.*

Maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda ertaklarning o’rni katta. Ertaklar bolalarning ongi va qalbini egallashda qaratilgan ma’naviy tahdidlardan asrashda, ularning ma’naviy tarbiyasini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki “ qalb irodasi insonning shaxs bo’lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Har qaysi ota – ona yoki o’qituvchi o’z bolasini mustahkam irodaviy sifatlarga ega qilib tarbiyalashni xohlaydi”.

“ Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” deb bejizga aytilmagan. Ertaklar har bir xalqqa xos va mos bo’lgan hikoyatlar sanaladi. Xalq ertaklari tarbiyaviy jarayonni yaxlitligicha tashkil etish, ya’ni axloqiy, ma’naviy, ekologik, estetik va aqliy rivojlanish chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Ulardagi obrazlar his- hayajonga boy, rangdor va shu bilan birga, bolalarning tushunishi uchun sodda, haqiqatga yaqinligi bilan o’quvchini o’ziga rom etadi. Ertaklar yordamida bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri rivojlanadi, tasavvuri uyg’onadi. Ular tinglash, o’qish orqali ona tilida til va nutqning taraqqiy etilishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Dars jarayonida boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish ishlari dastlab maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladi. Maktab muassasasiga boshlang’ich sinfga kelgan bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishda hikoya va ertaklarni, she’rlarni ko’plab yodlatish, shuningdek, so’zlarni to’g’ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali maqsadga erishiladi.

Ertak janri obrazlar talqini, g’oyaviy mazmuni va ziddiyati, qiziqarli syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarining o’rni va vazifasi, tili va uslubiga ko’ra turli xil bo’ladi:

- Hayvon va hasharotlar haqidagi ertaklar;
- Sehrli ertaklar;
- Maishiy ertaklar;
- Hajviy ertaklar;



Masalan : hayvon va hasharotlar haqidagi ertaklardan “Ashulachi pashsha” ertagi bo‘lib, unda pashsha yoz bo‘yi mehnat qilmasdan, o‘yin- kulgu bilan o‘tkazgan vaqtlarida, vaqti kelib kunlar soviy boshlanganda uy qidirib, yemish qidirib, sarsonlikda yurgani aks ettirilgan.

Sehrli ertaklarda voqealar, fantastik va uydurmalar asosida qurilgan bo‘lib, ularda paxlavonlik va qahramonlik madh etiladi. (“Semrug”, “Kenja Botir”, “Yalmog‘iz”, “Garri Poter” va boshqalar)

Maishiy ertaklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi. (“ Uch og‘a- ini botirlar” , “ Oygul bilan Baxtiyor”, “ Tohir va Zuhra” , “Zolim podsho”, “Qadrton uyimning mixchasi”, va boshqalar) . Masalan “ Qadrton uyimning mixchasi” ertagi odatdagidek ota – ona nasixati bilan boshlanadi. Bunda oila kambag‘al, og‘ir kunlarni boshidan kechirayotganini, o‘z farzandlarini tirikchilik qilish uchun , oilani saqlab qolish uchun pul topib kelishligini aytadi. Uch aka –uka oilani qiyin axvoldan qutqarish maqsadida yo‘lga otlanadilar. Ertak davomida katta aka va uka Piter va Mark dangasaliklari tufayli qo‘lidan hech narsa ish kelmasligi, kenja farzand Sven esa turli kasblarni o‘rganib, pul topib oilani o‘g‘ir axvoldan qutqarishi kuzatiladi.

Har bir ertakning o‘z g‘oyasi bor, albatta. Masalan “Sholg‘om” ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma – ket aytishga undaydi. “ Kuch birlikda “ degan g‘oyani anglab yetishlarini ta‘minlaydi. “ Zumrad va Qimmat” ertagida esa, Zumrad mehnatsevarligi, odob – axloqi ulug‘lanadi. Qimmat esa erka, dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Buning uchun ertak oxirida u jazolanadi. Shu tarzda bolalarni ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o‘rgatiladi.

Ertakning ta‘limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ularda voqealar, asosan, mo‘jizali tarzda ifodalanadi. Mo‘jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik kabi oliyanob g‘oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag‘ishlaydi, tinglovchi e‘tiborini o‘ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg‘ular dunyosiga g‘arq etadi. Ayni damda xalq og‘zaki ijodida xalqning hayot, tabiat, go‘zallik, ta‘lim- tarbiya, odob- axloq to‘g‘risidagi umumbashariy va milliy qarashlari ham mujassamlashadi.

Aytish joizki, Islom akademiyasi qoshida ochilgan “ Ziyo- Zukko” umumta‘lim maktabida turli fan o‘qituvchilari, tarbiyachilari, musiqa va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari bolalarga o‘quv dars va mashg‘ulotlari, “Kelajak soati”, ingliz tili, arab tili, rus tili fanlari va boshqa turli fanlar bo‘yicha yoshlarning bilimni, dunyoqarashini kengaytirmoqdalar. Bolalarning musiqa fanlarida kuylagan go‘zal qo‘shiqlari, raqs to‘garaklarda harakatli va milliy o‘yinlar bilan zavqlanishini, go‘zalliklardan bahramand bo‘lishni kuchaytirmoqda.

Ertaklar bola tarbiyasida muhimligini quyidagi ertak orqali ko‘rish mumkin :
“ Qadrton uyimning mixchasi”

Maqsad: Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash hamda insoniy fazilatlarini targ‘ib etish bilan ularning axloqiy sifatlariga ijobiy ta‘sir etish, bolalar orasida o‘zaro do‘stona munosabatni shakllantirish va mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish, turli kasblar bilan tanishtirib , kasb – hunarga oid bilimlarni o‘quvchilar ongiga singdirish.



Jihozlar: Ertak qahramonlari, ota- ona, uch o‘gil Piter, Mark va Sven, temirchi, etikdo‘z, tikuvchi, uy egasi, aravakash, kampir. Kamzul, qozon, bozor chilar, disk, kompyuter.
“Qadrdon uyimning mixchasi” ertak stenariysi.

Boshlovchi - Assalomu alaykum aziz ota – onalar va ustozlar. Maktabimizga xush kelibsiz. 4-“ D” sinf tomonidan qo‘yiladigan “ Qadirdon uyimning mixchasi “ NOMLI ERTAGINI NAMOYISH ETADILAR.

Boshlovchi: - Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir kambag‘al dehqon yashagan ekan. Ularning 3 o‘g‘li bor ekan. Mark, Sven va Piter. Kun sayin bu oila og‘ir kunlarni boshidan kechiribdi. Bir kuni ota o‘z o‘g‘illarini oldiga chaqirib:

OTA: – Bolalarim, xonadonimizda bir bo‘lak nondan boshqa hech narsa qolmadi. Oilamizni saqlab qolishimiz uchun sizlar ishlashingizga to‘g‘ri keladi.

Ona: - Mark bilan Piter katta bo‘lib qolishdi. Ular o‘z yo‘arini topib ketadilar. Sven esa endigina 7 yoshku. Qaranglar uni ozg‘in va nimjon. U qanday ishlab pul topa oladi?

Sven : - Xavotir olmang onajon. Men ish topishga harakat qilaman. Qo‘yib yuboring, ruhsat bering.

Boshlovchi:- Nihoyat onasi rozilik bildiribdi. Uch o‘g‘lon yo‘lga o‘tlanishibdi.

1- O‘g‘il Mark : - Men otamning eski kamzullarini olib ketaman. Axir otam uyda o‘tiribdila. Ularga kerak ham emas.

2- O‘g‘il Piter : - Men esa uydagi qozonni olib ketaman. Onam bu qozonda hech narsa pishirmaydilar. Bu qozonni sotib, o‘shani puliga kunimni ko‘rib turaman. To ishga joylashib , mustaqil pul topgunimga qadar o‘sha pulni ishlatib turaman.

Ona : - Mana Svenga xech narsa qolmadi. (db xafa bo‘ldi).

Boshlovchi :- U o ‘z farzandlarini yaxshi ko‘rar edi. Ayniqsa kenja o‘g‘liga mehri boshqacha edi. Kenja o‘g‘li mehribon, shirin so‘z, aqilli bola edi. Onasiga har ishda yordam berar edi.

Sven :- Men esa onajon esdalik uchun uyimdagi kichik mixchani olaman. Haligi borku, men uxlashdan oldin kiyimlarimni osib qo‘yardimku ana o‘sha mixcha.

Boshlovchi:- Sven devordagi mixchani matoga o‘rab , cho‘ntagiga o‘rab qo‘ydi.

1- O‘g‘il Mark : - Voy Axmoq , Esing joyidami, Shu zanglagan mixni olib nima qilasan.

SVEN :- Siz qayerdan bilasiz, bu zanglagan mixchani kerak bo‘lmasligini. Balki kerak bo‘lib qolar.

Boshlovchi:- Sven juda xursand edi. Zanglagan mix emas , bir xovuch oltin olgandek edi. Ona mungli ko‘zlari bilan o‘z farzandlarini kuzatar edi. Uch aka – uka yo‘l o‘rtasiga kelganda

1- O‘g‘il Mark :- Biz Piter bilan birga ketamiz. Sen o‘zing zanglagan mixchang bilan alohida ketaver.

Boshlovchi:- Uzoq yo‘l yuribdi. Yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Yo‘lda bir arava itarib kelayotgan kishiga ko‘zi tushibdi.

Aravakash :- Hoy bolakay , menga yordam bera olasanmi? Aravammi g‘ildiragi



Sven :- Keling amaki menda bir mix bor. Uni sinib ketgan joyiga tiqib qoyamiz.

Boshlovchi:- Ular yo‘l yurib , o‘z uylariga yetib olishibdi. Svenga aravakashning uyi juda yoqib qolibdi. Uning uyida temirchilik bilan shug‘ullanadigan ustalar yashar ekan. Sven ularning oldiga har kuni borib ishlarini tomosha qilarkan.

Sven : - Menga sizlarning ishingiz juda yoqyapti. Temirning ovozi xuddi musiqa kasbingizni o‘rgating.

1-Temirchi :- Haaaa meni kulgimni qistatma. Sen axir juda kichkinasan. Qo‘lingdan xech narsa kelmaydi. Bu o‘g‘ir bolg‘ani ko‘tarib nimani uddasidan chiqasan. Bu senga o‘yinchoq emas.

Aravakash:- Agar sen chindan xoxlasen o‘g‘limning o‘rniga ishlab turishing mumkin. Mening o‘g‘lim betob bo‘lib qoldi.

2-Temirchi:- Qilgan mehnating evaziga senga 1 qop bug‘doy va seni bepul ovqatlantiramiz.

1-Boshlovchi:- Sven shu kundan boshlab Aravakashning uyida qolib yashadi va ish o‘rgandi. Aravakashdan o‘zining zanglagan mixchasini olib matoga o‘rab, cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Bir yildan so‘ng Temirchi va Aravakash Svenni o‘z uyida ortiq ushlab turolmas edi. Ular Sven bilan hayrlashib , qilgan mehnati evaziga pul beribdi. U yo‘l yuribdi. Yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Qo‘shiq kuylar edi.

2-Boshlovchi:- U bir shaharga yetib boribdi. U yerda bir kulba uyni yonida bir odamni ko‘rib qolibdi. Bu odam tikuvchi edi. Uning bo‘ynida tizimcha , qaychi va ko‘zoynak bor edi. Kamzuli qo‘lidan tushib ketdi. Sven chopib kelib

Sven:- Siz kamzulni osib qoysangiz bo‘lar edi.

Tikuvchi:- Menga aql o‘rgatma . Men sendan yaxshi bilaman.

Sven:- Men sizga yordam bermoqchiman. Xo‘jayin.

Boshlovchi:- Sven cho‘ntagidagi mixni olib, eshikka qoqib qo‘ydi. Tikuvchi buni ko‘rib xursand bo‘lib ketdi va kamzulini osib qo‘ydi. Keyin tikuvchi o‘z uyiga taklif qildi.

Tikuvchi:- Qara bizning uyimizga ajoyib bola keldi. Yegulik nima narsang bor? Olib chiq , uni mehmon qilamiz.

Uyning egasi:- Ol bolakay qorning ham ochib ketgandir, ol osh bo‘lsin. Sen uni shogirdlikka ol.

Sven:- Yaxshi bo‘lar edi, meni shogirdlikka olsangiz. Men ishdan qochmayman. Temirchilik qo‘limdan keladi. Tikuvchilikni ham eplayman.

1.-Boshlovchi:- Sven tikuvchining uyida bir yil qolib, tikuvchilik sirlarini o‘rganib oldi. Bir yil bo‘lganda u uy egalari bilan xayirlashib , eshikka

2.-Boshlovchi:- Sven nihoyat yo‘l yurib bir qishloqqa borib qoldi. Birdaniga momoqaldiroq chaqib, qattiq yomg‘ir yog‘ibdi. Bir uyning yonida bir kampirni ko‘rib qoldi. Kampirning arqoni uzilib ketibdi. Shunda Sven chopib kelib, kampirga yordam beribdi. U qo‘lidagi mixni ko‘rsatib :

Sven:- Men sizga buni berib turaman. Keyin siz menga qaytarib berasiz. Chunki bu mix meni uyimni eslatib turadi.

Boshlovchi:- Sven kampirning uyiga kirganda , bir etikdo‘zni ko‘rib qoladi.

Etikdo‘zning qilayotgan ishlariga ko‘zi tushib havasi kelib , ish o‘rganishini aytadi.

Etikdo‘z ; - Sen hali kichkinasan.Qo‘lingdan kelmaydi.

Sven:- Men temirchilikni, tikuvchilikni o‘rgandim. Sizdan etikdo‘zlikni o‘rganmoqchiman.

Etikdo‘z:- Sen qanaqa temirchi, qanaqangi tikuvchisan? Lekin sen xoxlasang senga etik tikishni o‘rgataman.

Boshlovchi:- U bir necha oy shogird bo‘lib ularning uyida yashab qoldi. Nihoyat vaqti soati yetib uy egalari mehnati evaziga pulini beribdi va hayrlashibdi. U shahar bo‘ylab ketayotganda bir bozorga yetib keldi.

Sven:- Voy bu axir otamning kamzuliku, necha pul turadi ?

Voy axir bu onamning sevgan qozoniku , necha pul turadi?

Ona:- Bechoralarim meni , qiynalib kertilami? Xech qancha pul topib kelmadilami? Xattoki xech narsa olib ham kelmabziz...

AKA –uka :- Xech narsa qilmaydi onajon. Kelasi yil bahorda chiqib boshqa ish qidiramiz. (baravariga Etishadi)

Boshlovchi:- Shu payt eshik ochilib Sven kirib keladi.

Sven:- Assalomu alaykum qadrdonlarim. Mana men keldim. Mana otajon sizning kamzulingiz. Mana onajon sizning sevgan qozoningiz. Mana bu etikni onajon siz uchun o‘z qo‘llarim bilan tikdim.

Ona:- Raxmat bolajonim.

Sven:- Mana bu mening ishlab topgan pullarim. Men Temirchi, Tikuvchi va etikdo‘z kasblarini egalladim. Mana bu mening olib ketgan mixcham. Har bir ishimda menga katta yordam berdi.

Boshlovchi:- Sven mixchasini oldingi joyiga qoqib qoydi. Ikkala akasi esa Svenni oldida uyalib qoldilar. Mana azizlar bugungi ertagimiz ham o‘z nihoyasiga yetdi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Ergasheva A , Yusupov Z. xalq og`zaki ijodi- Qarshi: Nasaf nashriyoti 2002.
2. Ziyoviddinova G.Z Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda irodani tarbiyalash masalalari. “ Uzluksiz ta’lim” jurnali – T 2014 N 2- 74-b.
3. Inogamova D.R , Qodirova X. Maktabgacha va boshlang`ich ta’limda bola nutqini oshirish. “ Uzluksiz ta’lim “ jurnali – T. 2014 N 3-4 –b.
4. Imomov.K, Mirzayev T, Sarimsoqov B, safarov O. O‘zbek xalq og`zaki poetic ijodi. – T: O‘qituvchi, 1990.- 189-b.